

ERPO‘LAT BAXT SHE‘RLARIDA TASHBEH, TASHXIS,
TAJOHULI ORIF
(SHE‘RLARI MISOLIDA)

Yuldashev Zafarbek Umarbek o‘g‘li,
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti
o‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi o‘qituvchisi

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.18409896>

Annotatsiya. Mazkur maqolada taniqli shoir Erpo‘lat Baxtning tashbeh, tashxis va tajohuli orif badiiy san‘atlaridan foydalanish mahorati talqin qilingan. Shuningdek, shoir ijodiga doir o‘ziga xos jihatlar teran yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: Badiiyat, falsafiylik, tashbeh, tashxis, tajohuli orif, badiiy san‘atlar, mazmun, g‘oya, estetik mahorat.

Аннотация. В данной статье рассматривается мастерство известного поэта Эрполата Бахта в использовании художественных приемов сравнения, диагностичности и таджухули ориф. Также подробно освещаются специфические аспекты творчества поэта.

Ключевые слова: Искусство, философия, сравнение, диагностичность, таджухули ориф, художественные приемы, содержание, идея, эстетическое мастерство.

Annotation. This article interprets the skill of the famous poet Erpolat Bakht in using the artistic arts of simile, diagnosticity, and tajahuli orif. Also, the specific aspects of the poet's work are deeply covered.

Keywords: Art, philosophy, simile, diagnosticity, tajahuli orif, artistic arts, content, idea, aesthetic skill.

Kirish. Xorazm adabiyoti, ayniqsa, she‘riyati ancha boy, o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi. Zamonaviy adabiyotda ham ko‘zga ko‘ringan, adabiyotda o‘z o‘rniga ega bo‘lgan shoirlar bisyor. Gavhar Ibodullayeva, Boltavoy Bekmatov, Bahrom Ro‘zimhammad, Go‘zal Begim, Shoira Shams kabi nomlarni sanashni o‘zi vohaning she‘riyati manzarasini namoyon eta oladi, nazarimizda. Shularning ichida Erpo‘lat Baxt nomi alohida hodisa hisoblanadi.

Mavzuning dolzarbligi va hozirgi holati. Erpo‘lat Baxt (Ermatov Po‘lat Baxtiyorovich) – 1971-yil Xorazmning Bog‘ot tumanidagi hozirgi Qipchoq qishlog‘ida ziyoli oilada tavallud topgan. 1978-1988 yillarda qishloqdagi 13-o‘rta maktabda ta‘lim oldi. 1989-1991 yillarda Uzoq Sharqda harbiy xizmatni o‘tadi. 1992-1998 yillarda O‘zbekiston Milliy universitetining jurnalistika fakultetida tahsil oldi. 2003-yildan buyon “Xorazm yoshlari” gazetasi muharriri bo‘lib ishlaydi. Shu bilan birga u Bog‘ot tumanidagi 13- umumta‘lim maktabida tarix fani o‘qituvchisi, “Turkiston”, “Huquq”, “Ishonch” gazetalarining viloyat bo‘yicha muxbiri bo‘lib faoliyat ko‘rsatdi, Xorazm televideniyesi, “Muhofaza” gazetalarida mehnat qildi. 1999-yilda “Shuhrat” medali bilan taqdirlangan. “Eng yaxshi asarlar – bolalarga!”, “Iste‘dod”, “Eng aziz, eng ulug‘”, “Oila – muqaddas dargoh” kabi qator tanlovlarning respublika bosqichlari g‘olibi bo‘lgan. Shuningdek, shoirning she‘rlari “O‘zbekiston Vatanim manim”, “Istiqlol umidlari”, “Bir qishloq

bolalari, “Gulgina” kabi jamoa to‘plamlari va “O‘zbek bolalar adabiyoti antologiyasi” hamda umumiy o‘rta ta‘lim maktablari darsliklarida chop qilingan.

Tajriba qismi (Tadqiqotni amalga oshirish). Shoir she‘rlari o‘ziga xos badiiyligi bilan ajralib turadi. Atoqli shoir Salim Ashur Erpo‘lat Baxt ijodi haqida shunday yozadi: “Erpo‘latni faqat lirik shoir, desak, uning badiiy diapazoni va imkoniyatlarini to‘la ifodalab bermagan bo‘lamiz. U ijtimoiy-falsafiy, diniy-ma‘rifiy kabi yirik va og‘ir mavzularda katta masalalarni ham qiynalmasdan qalamga oladi. Ko‘ngil kechinmalarini hayot voqealari bilan mohirona bog‘laydi. Barcha yo‘nalishlarda qalami silliq yuradi. Bunda, shubhasiz, ijodiy tajriba muhim rol o‘ynaydi...”. Shoir she‘rlari badiiy tasviriy vositalarga boyligi, fikriy teranligi bilan ajralib turadi. Shoir she‘rlarida tashbeh, tashxis, tajohuli orif kabi she‘riy san‘atlarni uchratishimiz mumkin.

“Ma‘lumki, she‘riy san‘atlar badiiy asardan o‘rin olgan g‘oyalarning hayotiyroq, ta‘sirchanroq ifodalanishiga, lirik va epik timsollarning yorqinroq gavdalantirilishiga misralar, baytlar, bandlarning lafziy nazokati, musiqiyliigi, jozibadorligini ta‘minlashga xizmat qilgan”. [1:4] Erpo‘lat Baxt ijodida ham ana shu badiiyat vositalari mahorat bilan qo‘llanilganligiga guvoh bo‘lishimi mumkin.

Tashbeh san‘ati – Sharq adabiyotida keng tarqalgan san‘atlardan biri bo‘lib, o‘xshatish ma‘nosini ifodalaydi. “Dil tafsiri” kitobidagi “Iftixor solnomasi” she‘rida quyidagi misralarda tashbeh san‘atini ko‘rishimiz mumkin:

...O‘zbekiston atalmish ona

Bag‘ridagi muqaddas beshik –

Ey, Xorazm, yillar, asrlar

Hayratlarga ochasan eshik.

Shoir tire qo‘llash orqali o‘xshatish hosil qilgan. Ya‘ni O‘zbekiston deb atalgan onaning bag‘ridagi beshik bu – Xorazm.

Shoirning “Oq tonglarim” she‘rida esa shunday misralarni uchratamiz:

Uyg‘onishda bir rohat tuydim

Uyg‘onishni baxt kabi suydin,

Ey, o‘zimni tanitgan Sevgi,

Kelaverdi seni anglarim!

Bu yerda shoir “kabi” ko‘makchisi orqali tashbeh san‘atini yuzaga keltirganligiga guvoh bo‘lamiz. Baxt, bu bilamizki, inson hamisha intilib, izlab keladigan orzudir. Bu yo‘lda riyozat chekishga to‘g‘ri keladi, balki shuning uchun ham “Baxt” so‘zi ulug‘ tushunchadir, balki shuning uchun ham inson baxtni qadrlab, e‘zozlab, yaxshi ko‘rib yashar? She‘rdagi lirik qahramon ham uyg‘onishni baxt kabi suyishini aytmoqda. Uyg‘onish bu – bu hayotga qaytish, yana ziddiyatlar bilan kurashishga kirishish. Qahramonning uyg‘onishni suyishini hayot kurashini suyishiga qiyoslash mumkin.

“Vatan isi” she‘rida keltirgan misralarida esa tashbeh san‘ati ramziy ma‘noda qo‘llanganini ko‘ramiz:

Qahraton qish. Dovdir o‘t-o‘lan –
Qor ostiga ko‘milgan mayit.
Bu dunyoning sukunatidan
Ko‘nglim, to‘ngib ketmadingmi, ayt?!

Shoir bu yerda o‘t-o‘lanlarga insonga beriladigan sifatlash bilan qo‘llaydi va jonsiz narsalarni jonliday tasvirlaydi. O‘t-o‘lanlarni “qor ostiga ko‘milgan mayit”ga o‘xshatadi. Ya’ni shoir nazarida aynan “dovdir” bo‘lgani sabab qor ostiga ko‘milgan. Bundan o‘ziga xos ramziy mazmun kelib chiqadi. “O‘z yurtini sevganlar” she’rida shoir go‘zal ifodalarni qo‘llaganini ko‘rish mumkin:

Ishq – yurakka o‘yilgan ilm,
Ibodat bil muqaddas fanni...

Shoir “Ishq” atalmish muqaddas tushunchani “yurakka o‘yilgan ilm” deb atab, go‘zal tashbeh qiladi, uni muqaddas fan va ibodat deb bilish kerakligini ta’kidlaydi.

O‘z yurtini sevganlar – olim,
Shonga chulg‘ar ulug‘ Vatanni.

Shoir o‘z yurtini sevgan, uni shon-shuhratini olamga yoygan har kimni olim sanaydi. Vatan qadriga yetish, rivoji uchun kamarbasta bo‘lish ham ezgu amal ekanligini shoir o‘z she’rida anglatmoqchi bo‘ladi. Vatan sevganlarni olimlarga o‘xshatish orqali hosil qilgan tashbehi bilan shoirning badiiy mahoratini oddiy so‘zlar vositasida ko‘ramiz.

G‘unchalar labida uxlatimg
Inja xayolimning kapalagini
Sabolar mulkiga, oy ayting
Yig‘nasin dog‘uli el palagini

Tashxis (“jonlantirish”) hayvonlar, qushlar, jonsiz narsalarga inson xususiyatlarini ko‘chirish san’atidir. Ushbu she’rda “g‘unchalar labida uxlatimg” misrasi orqali tashxis san’atiga murojaat qilinadi. “G‘uncha labi” shoir she’riyatidagi go‘zal tashbeh bo‘lishi bilan bir qatorda “labida uxlash”birikmasi bilan birgalikda insonning orom olish holatini o‘ziga ko‘chirib tashxis san’atini yuzaga keltiradi. “Xayolimning kapalagi” o‘xshatish orqali xayolning turfa makonlarda uchib yurishiga ishora qilinadi.

Sarlochinim, toldingmi?
Parvozdand ham qoldingmi?
Cho‘qqilarni zor etib
Jannatga yo‘l oldingmi?

Tajohuli orif – “bilib turib bilmaslikka olish” ma’nosini ifodalovchi ushbu she’riy san’at shoirning baytda aks ettirilayotgan biron bir obrazli iborani aniq aytmasdan o‘zini bilib bilmaslikka olgandek ko‘rsatishini nazarda tutadi. Shoir yuqorida keltirilgan she’rida “Sarlochinim, toldingmi?”, “Parvozdand ham qoldingmi?”, “Jannatga yo‘l oldingmi?” misralari orqali tajohuli orif san’atini qo‘llaydi. Shoir bu misralarda lirik qahramonning ahvolidan xabardor bo‘ladi va bilmaslikka olib savol bilan murojaat qiladi.

Xulosa. Erpo‘lat Baxt ijodini bugungi o‘zbek she‘riyatida go‘zal tashbehlari, insonni mushohadaga chorlaydigan fikrlari, pand-nasihahat ruhidagi diltortar misralari bilan o‘ziga xos o‘ringa ega. Shoirning vatan mavzusida yozilgan she‘rlarni insonlarni vatanparvar bo‘lishga undaydi. Bolalarga atab yozilgan va yozilayotgan she‘rlarida ham yuksak ma‘naviy tarbiyani ko‘rishimiz mumkin. Shoir she‘riyati inja tuyg‘ular tarannumi, badiiy tafakkur manbai sifatida she‘riyatda o‘z mavqeyi, o‘z o‘rniga egadir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Xojiahmedov A. Mumtoz badiiyat malohati. – T.: “Sharq”, 1999, – 240 b.
2. Qozoqboy Yo‘ldoshev. Yoniq so‘z. – Toshkent: “Yangi asr avlodi”, 2006. – 548 b.
3. Erpo‘lat Baxt. Shodlik hidi. – T.: “Akademnashr”, 2011.
4. Erpo‘lat Baxt. Ko‘ngil xitoblari. – T.: “Akademnashr”, 2011.
5. Эрпўлат Бахт. “Дил тафсири”, Сайланма, 2021. – Урганч: “Хоразм yoshlari” нашриёт-матбаа уйи.

